

PLUTARXNING FALSAFIY-AXLOQIY QARASHLARINING BAZI JIHATLARI

**Anvarov Sunnatillo Doniyorjon o'g'li**

*Sharq falsafasi va madaniyati 3-kurs*

(+998996466436) ([baluteddy4@gmail.com](mailto:baluteddy4@gmail.com))

*Ilmiy rahbar: Po'latov Sherdor Ne'matjonovich*

*Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Antonatsiya:** Tarixchi va faylasuf, olim Plutarx hayoti va faoliyati Plutarxning falsafiy-axloqiy maktablar tashkil qilishdagi xizmatlari, falsafiy-axloqiy, antalogik va diniy qarashlari.

**Kalit so'zlar:** Plutarx, tarix, falsafa, stoitsizm, peripotetizm, axloq, insonparvarlik, Y.Sezar, Iskandar, Lampriy, Misr mifologiyasi, plotonizm, eklektizm.

Plutarx ko'p qirrali, ulkan iste'dod sohibi buyuk yozuvchi, tarixchi va faylasufdir. Asrlar davomida uning, baddiy falsafiy asarlarini adabiyot muxlislari mutolaa qilib o'rganib kelmoqdalar va hozirgi kunda ham uning asarlari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Plutarxning hayoti haqida ma'lumotlar bizgacha kam yetib kelgan. Plutarx mill.avv. 46 yilda Xeroneya shaharchasida tug'ilgan va 120-130 yillar orasida vafot etgan. Manbalarda keltirilishicha, Plutarx o'z davrining eng ma'rifatli odamlaridan biri bo'lib, adabiyot, tarix va falsafani yaxshi bilgan, musiqa va tabiiy fanlardan xabardor bo'lgan.

Dastlab u o'z uyida, otasi Avtobul va bobosi Lampriy rahbarligida o'qigan, keyinchalik o'qishini Afinada davom ettirgan. Uning o'spirin davridayoq yaxshi ma'lumotga ega bo'lganligiga quyidagi voqea guvohlik beradi: 66-yili imperator Neron Yunoniston bo'ylab sayohat qilganida 17-18 yoshlardagi plutarx Afinada bo'lgan. Shu sayohat davomida Neron Delfada o'tkazgan diniy-falsafiy suhbatlarda yosh Plutarx ham o'z ustozini faylasuf Ammoniy bilan birgalikda qatnashgan. Uning iqtidori yoshligidayoq yuksak bo'lgan. Platon akademiyasining ko'zga ko'ringan a'zolaridan biri sifatida platonizm g'oyalarini targ'ib qilgan. Ayni paytda muayyan darajada stoitsizm, peripatetizm va, jumladan, pifagorizm ta'siri ostida ham qolgan. Plutarx ta'limotida ko'proq odob-axloq, insonparvarlik masalalari yetakchilik qilgan va olim falsafani insonlar uchun o'z-o'zini ma'naviy shakllantirish vositasi deb bilgan. Plutarx Yunonistonning boshqa shaharlarida, shuningdek, Iskandariya va Rimdan ham bo'lgan. Hukmdor Trayan ham uni usoz sifatida ulug'lagan.

Plutarx Rimda falsafiy suhbatlar o'tkazgan, do'stlar orttirgan. Imperator Trayan unga konsul unvonini bergan va u Rim fuqarosiga aylangan. Plutarx umrining ikkinchi qismini o'zi tug'ilgan Xeroneya shahrida o'tkazdi va bu shaharning ijtimoiy, ma'rifiy hayotida faol qatnashdi, bu yerda falsafiy-axloqiy maktab tashkil etgan. Plutarxdan juda ko'p adabiy meros saqlanib qolgan. Adibning o'g'li Lampriy tomonidan tuzilgan

asarlar ro'yxatida uning 210 asari sanab o'tilgan. Plutarx yozgan asarlar asosan ikki qismga bo'lingan: "Qiyosiy xayotnomalar" va "Axloqiy asarlar"dir. "Axloqiy asarlar" Moralia deb atalgan va u ham "Qiyosiy hayotnomalar" kabi Plutarxga katta shuhrat keltirgan. "Qiyosiy hayotnomalar" mashhur yunonlar va rimliklarning hayotlari bayonidan iborat bo'lib, juftliklar yoki yunoncha "parallelar"ga birlashtirilgan. Har bir juftlikka yunon va rimlik kiritilgan. Faqat bir asarida Plutarx ikkita emas, to'rtta shaxs hayotnomasini bayon qilgan, bular: yunonlar Agid va Kleomen; rimliklar aka-uka Tiberiy va Gay Grakxlardir. Bizning davrimizgacha qirq oltita juft hayotnomalar saqlanib qolgan, bundan tashqari to'rt hayotnomaning ham juftlari saqlanib qolgan. Har bir juftlikka kiritilgan shaxslar hayotida Plutarx fikricha, ma'lum bir o'xshashliklar bor, bu o'xshashliklar yo ularning taqdirida yoki fe'l atvorlarida o'xshashlik mavjud.

Masalan: Mazkur asarlarda Lisandr va Sulla, Kiton va Likull, Nikiy va Krase, Agesilay va Pompei, Aleksandr va Sezar, Demosfen va Sitseron singari mashhur yunon, Rim davlat va siyosiy arboblari, sarkardalari va notiqalarining hayot yo'llari, xulqatvori, turmush tarzini qiyoslash yo'li bilan tarjimai hollari bayon qilingan. Badiiy-tarixiy ahamiyatga molik Plutarx biografik asarlarida Qadimgi Eron, Parfiya va Sug'diyona singari Sharq mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotiga doir ma'lumotlar ham yoritilgan. Plutarx muallifi bo'lgan "Axloq" tsikli nafaqat tarbiyaviy, balki tarbiyaviy vazifani ham bajargan.

U "Davlat ishlari bo'yicha ko'rsatma" va "Monarxiya, demokratiya va oligarxiya to'g'risida" kabi asarlarida siyosat haqida so'z yuritgan. Titus Flavius hokimiyatga kelganida, davlatda so'z erkinligini cheklash zulm qilish boshlandi. Natijada, Plutarx o'z qarashlari va bayonotlari uchun o'limga mahkum etilmaslik uchun Xeroneyaga qaytishga majbur bo'ldi. Yozuvchi Yunonistonning barcha yirik shaharlarida bo'lib, ko'plab muhim kuzatuvlarni olib borgan va juda ko'p materiallar to'plagan.

Bu Plutarxga qadimgi Misr mifologiyasini tushunishga imkon bergan "Isida va Osiris to'g'risida" kabi asarlarini, shuningdek, "Yunon savollari" va "Rim savollari" kabi asarlarini yaratgan.

Plutarxning axloqiy asarlari turkumiga "Dasturxon atrofidagi suhbatlar", "Rim masalalari", "Yunon masalalari", "Yetti donishmand ziyofati", "Spartaliklarning hikmatli so'zlari", "Sparta ayollarining hikmatli so'zlari", "Podshohlar va sarkardalarning hikmatli so'zlari", "Kelin va kuyovlarga nasihatlar" kabi asarlari kiradi.

Platon akademiyasining ko'zga ko'ringan a'zolaridan biri sifatida platonizm g'oyalarini targ'ib qilgan. Ayni paytda muayyan darajada stoitsizm, peripatetizm va, jumladan, pifagorizm ta'siri ostida ham qolgan. Plutarx ta'limotida ko'proq axloq-odob, insonparvarlik masalalari yetakchilik qilgan va olim falsafani insonlar uchun o'z-o'zini ma'naviy shakllantirish vositasi deb bilgan. Plutarx ilgari surgan insonparvarlik,

ma’rifatparvarlik g’oyalari keyingi davrlarda anchagina ilg’or tafakkur vakillariga ma’lum darajada o’z ta’sirini o’tkazgan.

Mutafakkir o’zini Platonning izdoshlari deb bilgan. Biroq, u **eklektizmga**<sup>5</sup> boshqa falsafiy maktablardan olingan turli xil qoidalarni birlashtirib, falsafiy tizimni yaratish uslubiga sodiq qoldi. O’qish davrida ham Plutarx peripatetiklar Aristotel va Stoikalar talabalari bilan uchrashdi. Keyinchalik u stoiklar va epikurchilar ta’limotini keskin tanqid qildi.

Plutarxning ham borliq haqidagi qarashlarida dunyo to’rt unsurdan tashkil topgan degan qarashlari mavjud, va borliqni yagona xudo yaratgan deb aytadi. Bu haqida Plutarxning bu fikrlaridan bilib olishimiz mumkin: “Quyosh, Oy, Osmon, Yer va dengiz butun insoniyatga birdek tegishli. Insonlar xoh shimolda, xoh janubda yashasinlar, xoh yunon, xoh o’zga yurtlik bo’lsinlar, yagona Xudoga sig’inadilar. Insonlar Yaratuvchini turlicha nomlar bilan atasalar-da, butun olamga yolg’iz Xudo hokimlik qiladi. Hamma yerda ayni bir kuch hukmrondir. Faqat qalbni ilohiyot sari yo’lovchi nomlar, timsollar va marosimlargina turlicha, xolos”.

“Ularning fikricha, inson bir butun borliqning tarkibiy qismi bo’lib, uning hayoti taqdir yohud zaruriy qonuniyat orqali belgilanadi. Taqdirga tan bermaslik behudadir. Insonning haqiqiy baxti ruhning xotirjamligi, ehtirolardan xoliligidir. Bunday fazilatlar kishi o’zini o’zi tarbiyalashi oqibatida shakllanadi. Ezgulikning doyasi — aql-farosat, me’yor va jasoratdir. Bularga zid barcha holatlar yomonlik belgisi hisoblanadi. Stoitsizm da aql va odob qoidalari ga monand tarzda yashash imkoniyati bo’lmagan taqdirda insonning o’limni ixtiyor etishi oqlanadi. Stoitsizm neoplatonizm va xristianlikka sezilarli ta’sir ko’rsatgan”.<sup>6</sup>

Plutarxni ko’proq quyidagi mavzular qiziqtiradi:

- do’st bilan xushomadgo’yni ajratish;
- yosh bolalarga muhabbat;
- nikohga oid qo’llanmalar;
- keksayganda davlat ishlari bilan mashg’ul bo’lish yoki bundan voz kechish masalasi;
- o’smirlarni she’riyat bilan tanishtirish usullari;
- Suqrotning ichki ovozi;
- ayollarning jasorati.<sup>7</sup>

Quyosh, Oy, Osmon, Yer va dengiz butun insoniyatga birdek tegishli. Insonlar xoh shimolda, xoh janubda yashasinlar, xoh yunon, xoh o’zga yurtlik bo’lsinlar, yagona Xudoga sig’inadilar. Insonlar Yaratuvchini turlicha nomlar bilan atasalar-da, butun

<sup>5</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/filosofskie-osnovaniya-nauki-v-sochineniyah-plutarha/viewer> . (Н. И. Сидоренко, “ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУКИ В СОЧИНЕНИЯХ ПЛУТАРХА “ Страница 49 )

<sup>6</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/filosofskie-osnovaniya-nauki-v-sochineniyah-plutarha/viewer>. (Н. И. Сидоренко, “ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУКИ В СОЧИНЕНИЯХ ПЛУТАРХА “ Страница 41. )

<sup>7</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar/plutarx>

olamga yolg'iz Xudo hokimlik qiladi. Hamma yerda ayni bir kuch hukmronidir. Faqat qalbni ilohiyot sari yo'llovchi nomlar, timsollar va marosimlargina turlicha, xolos.

Eshitish qobiliyati inson qalbini barcha sezgilardan ko'ra osonroq chalg'itib, tezroq hayajonga soladi va aql-idrok bilan mulohaza yuritish qobiliyatidan mahrum etadi.

Insonning tabiati aslida o'zgarmasdir. Ammo taqdir har xil yangi umidlar tug'dirib, yangi tashabbuslar sari boshlaydi.

Urush yovuzlikdir. Adolatsizlik va zo'ravonlik unga doimo hamroh. Ammo vijdonli odam urushda ham muayyan qoidalarga amal qiladi. U pastkashlik va jinoyat yo'li bilan qo'lga kiritiladigan g'alaba ketidan quvmaydi.

Buyuk sarkarda boshqalar tomonidan sodir etiladigan sotqinlikka emas, o'z kuchiga tayanib, jang olib borishni afzal deb hisoblaydi. Yo'qotib qo'yishdan qo'rqib, zarur narsani olishga ikkilangan kimsa qo'rqoq va qat'iyatsizdir. Tinch-xotirjam bo'lishni istovchilar muhtojlikda yashashni o'rganmoqlari lozim.

Eng zafarli harakatlarda ham ezgulik yoki axloqsizlik ochiq namoyon bo'lavermaydi. Goho qandaydir arzimasi bir qiliq, so'z yoki hazil inson fe'l-atvorini o'n minglab odamlar halok bo'ladigan jangdagidan ko'ra aniqroq va ro'y-rost namoyon etadi.<sup>8</sup>

Hamdardlik — o'zgalarning baxtsizligidan aziyat chekish, hasad — birovlarining baxtini ko'rib g'amga botish. Har qanday adashish halokatlidir. Ehtiros hamroh bo'lgan adashish esa ikki karra halokatliroq. Biz ko'pincha javobga muhtojligimiz tufayli emas, balki o'zgalarning ovozi eshitib, ularni o'zimizga og'dirib, suhbatga tortish uchun savol beramiz.<sup>9</sup>

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Plutarx asosiy asarlari tarixga, tarixiy-biografiyaga va axloqqa doir asarlar hisoblanadi. 210 ta asarining ko'p qismi axloqqa bag'ishlangan. Uning tarixiy asarlari qiyosiy tarzda yozilgan b'lib, o'tmishdagi hukmdorlar va buyuk shaxslarning tug'ilishi, yoshligi, xarakteri, faoliyatlarini, bir-biriga yaqin o'xshash jihatlari tushunarli tarzda yoritib bergan. Plutarxning ijodida biografiya xarakterdagi "Aleksandr" asari muhim ro'l o'ynaydi. Xarakterli jihati Plutarx bu asarida Aleksandr hayotiga oid sanalarni birma-bir sanab o'tirmaydi. Aleksandr bilan bog'liq voqealarni badiiy yo'sinda hikoya qiladi. Plutarxning falsafiy qarashlariga asosan perpatetiklar va stoiklar katta ta'sir ko'rsatgan. Plutarx o'zini platonist deb hisoblaydi, lekin uning falsafiy qarashlari ko'proq eklektika doirdir. Plutarxni buyuk axloqshunos deb ta'riflash bo'ladi, chunki uning asarlarini katta qismi etikaga bag'ishlangan. Plutarx dindor odam bo'lgan, axloqni muhimligini insonlarga yetkazish uchun butparastlik dinini muhimligini tan oladi. Lekin, u butparast bo'lsa-da, keyinchalik u o'zining falsafiy qarashlarida xudoning yagonaligi, birligi va dunyo yagona xudo tomonidan yaratilganligini tan oladi.

<sup>8</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/filosofskie-osnovaniya-nauki-v-sochineniyah-plutarxa/viewer>. (Н. И. Сидоренко, "ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУКИ В СОЧИНЕНИЯХ ПЛУТАРХА" Страница 46.)

<sup>9</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar/plutarx>

1. Plutarx. Saylanma. – T. Yangi asr avlodi, 2020. 2 bet.
2. D.A. Po‘latova, M.Q. Qodirov, J.B, Sulaymonov, Sharq falsafasi va madaniyati tarixi. T.: - Fan va texnologiya -2018. 96 bet.
3. D.A. Po‘latova, G.M. Ro‘zmatova, G‘arb falsafasi tarixi. T.: - 2018.
4. (Н. И. Сидоренко. ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУКИ В СОЧИНЕНИЯХ ПЛУТАРХА . Страница 46. )